

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601784>

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YOSHLARNING ILM VA AXLOQIY FAZILATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ozoda Abdusattarovna Abdugaffarova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Boshqaruv Akademiyasi ilmiy izlanuvchisi

ozodaabdugaffarova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Uchinchi Renessans poydevorini qurishda yoshlar-ning ilm va axloqiy fazilatlarini buyuk mutafakkirlarning qarshlari orqali yoritilgan. Yosh avlodda yuksak ma'naviyat, kuchli tafakkurni shakllantirish, ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalashda milliy tarbiyaning o'rniga ham ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: *ma'naviy meros, jahon hamjamiyati, Renesans, Sharq va G'arb mutafakkirlari, milliy tarbiya, ёшлар, axloqiy fazilatlar.*

ABSTRACT

This article, through the contrast of great thinkers, highlights the knowledge and moral qualities of youth in building the foundations of the Third Renaissance. In the formation of high spirituality, strong thinking, consciousness and vigilance in the younger generation, great importance is attached to the place of national education.

Key words: *spiritual heritage, world community, Renaissance, Eastern and Western thinkers, national education, youth, moral qualities.*

KIRISH(BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Dunyo ilmiy-falsafiy merosi taraqqiyotida qomusiy allomalarning ma'rifiy, falsafiy, tabiiy-ilmiy ta'limotlari, xususan, dunyoni bilish, tabiat, olam va odam, inson ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlari doirasida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda

[3.]. Jumladan, dunyo tamadduniga salmoqli hissa qo'shgan mutafakkir-lar ilmiy merosidagi olamning yaralishi, yaratuvchi va inson, koinot, tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi ta'limotning ilmiy jihatlarini tadqiq etish, inson va tabiat muno-sabatlari mohiyatini ochib berish, tabiiy-ilmiy qarashlarning ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojidadagi o'rnini asoslash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4]. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyatda madaniy transformatsion jarayonlarni me'yorlashtirish, umuminsoniy g'oyalar orqali qadriyatlar majmuini boyitish, bilim ideallari va normalariga rioya qilishda tarixiylik tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda bilimlar vorisiyligini ta'minlash, yangi dunyoqarashga ega yoshlarni intellektual rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy shakllantirishda buyuk mutafakkirlarning madaniy almashinuv, madaniy xotira shakllari va mexanizmlarini qo'llash, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy falsafiy tafakkur taraqqiyotiga oid qarashlarini hozirgi davr yangiliklari bilan uyg'unlashtirish zarurati mavjud.

Tarixiy xotirasiz yangi bosqich o'rtaga tashlayotgan vazifalarni bajarish mumkin, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Zero, "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda arboblarning jasoratlarini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak" [1].

Bu borada Markaziy Osiyoda yetishib, bir necha asrlardan buyon dunyo hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'lib kelayotgan vatandoshlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Mahmud Qoshg'ariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa yana yuzlab ajdodlarimizning bildirgan fikr-mulohazalari nihoyatda muhimdir. Ular yaratgan tarbiya haqidagi ta'limot va g'oyalar juda ham ko'pki, ularadan yoshlarni ilm va a[k]qiy fazilatlarini yanada takomillashtirishda foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/METHODS). Barcha muammoni tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, umumlashtirish orqali dialektik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan holda allomalarning meroslarini o'rganish hamda

takomillashtirish, mavjuq adabiyotlarini tahlil etib, metodologiyani tahlil etish uchun adabiyotlarni batafsil o'rganib boorish mumkin.

O'z davrning yirik namoyondalaridan biri Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy - davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarining nazariy tamoyillarini yaratganligi bilan mashhur hisoblanadi. U "Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi" [5].

NATIJAR(PEZYJBTATY/RESULTS). Musulmon mualliflaridan Abdug'affor Kazviniyning "Nigoristoni G'afforiy" (XVI asr), Ali Akbar Muhammad Husayniyning "Ziynat ul-majolis" (XVI asr), Kotibi Chalabiyning "Kashf az-zunun" (XVII asr) asarlarida Forobiy haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bu asarlarning barchasida Forobiy musulmon Sharqining eng ko'zga ko'ringan va eng nufuzli mutafakkiri, "ikkinchi muallim" ("Muallimi as-soniy") yoki "Sharq Arastusi", yunon hikmatining eng yaxshi mutaxassisi sifatida tavsiflanadi. Lekin, bu asarlarda Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi to'liq o'rganilmagan, qisman yoritilgan.

G'arb olimlari Forobiy risolalarini matnshunoslik va zamonaviy Yevropa tillariga tarjima qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ularning sa'y-harakatlari bilan Forobiy merosi zamonaviy Yevropaga keng tanish bo'ldi. Yevropa ilm-fanining eng yaxshi an'analari asosida yaratilgan qator asarlarda Forobiy hayoti va o'rta asrlar madaniyati va falsafasi rivojidagi rolini xolisona yoritishga intilish seziladi. U tibbiyot, matematika, musiqa nazariyasi, sotsiologiya va boshqa fanlar rivojiga ma'lum hissa qo'shgan o'rta asrlarning eng buyuk mutafakkiri sifatida o'rganilgan.

Ma'lumki, fozillar shahri hokimi ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal, qobiliyatli, har tomonlama yetuk bo'lishi bilan bir qatorda dono ham

bo'lishi zarur. "Dono bo'lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi, fuqarolari esa jabrzulmga muhtalo bo'ladi", - deydi Forobiy. Abu Nasr Forobiy dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy masalalar, xususan davlat tuzilishi, uni idora etish, yetuk jamoaga erishish, baxt-saodatli bo'lish masalasi alohida o'rin egallaydi.

MUHOKAMA(OBSUYJDEHIE/DISCUSSION). Yevropa sivilizatsiyasi-ning rivojlanishi natijasida XVIII asrga kelib, inson tafakkuriga bo'lgan munosabat ancha o'zgardi. IX-XII asrlarda tug'ma bilimlar jonga tegishli, tafakkur va jon bir-biriga xizmat qilishi kerak, deb hisoblangan bo'lsa, XVIII asrga kelib, ratsionalistik falsafiy oqimlarda tug'ma bilimlar inkor etildi. Jonning o'zi ham tafakkurning xususiyati, deb hisoblana boshlandi. Jon va tafakkur o'rtasidagi farq e'tiborga olinmay qo'yildi. Shuningdek, ilm va bilim jonning xotirlash qobiliyati, degan fikrlar rad etildi.

XX asrning boshlarida ijod qilgan frantsuz faylasufi Anri Bergson ijodida intuitsiyaga katta e'tibor berdi. Anri Bergson intellektni intuitsiya to'ldirib turishi kerak deb hisoblagan va intuitiv bilimni spontan obrazli xotira bilan bog'lagan Uning fikricha, intuitsiya ko'proq ichki ko'rish qobiliyatiga asoslanadi va shu qobiliyat orqali intellektning chegaralari kengayadi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida yunon, hind va tasavvuf vakillarining bilim haqidagi fikrlarida ratsionallik bilan bir qatorda irratsional dunyoqarash mavjud ekanligini ko'rsatib bergan.

Falsafiy lug'atda irratsionalizm atamasiga yangicha yondoshib, quyidagicha ta'rif berilgan: "Irratsionalizm inson ruhiy faoliyatining ratsionallik doirasidan tashqariga chiquvchi xilma-xil jihatlarini birinchi o'ringa suradigan turli xildagi falsafiy tizim va yo'nalishlarni o'zida birlashtiradi. Buyuk mutafakkir Beruniy hamda ko'pgina sufiy mutafakkirlar qalb va aql munosabatiga turlicha yondashgan. Bunday yondashuvlar XX asrlarga kelib, Fridrix Nitsche va Anri Bergson ijodiga ham xos bo'lgan.

Ibn Sino Sharq olimlaridan birinchi bo'lib tarbiya usullari haqidagi qarashlarini tartibli tarzda bayon etgan. Masalan, olim "Tadbir ul-Mansul" risolasida tarbiyaga

bag'ishlangan maxsus bob mavjud. "Al-qonun" kitobida to'rtta bob bolaning salomatligi va jismoniy tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan.

Abu Ali ibn Sino hayotda ham, asarlarida ham insonlarni har bir masalaga ilmiy, aqliy, axloqiy yondoshishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, xullas, insoniylik-ning eng muhim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishga chaqiradi. Alloma har bir farzand tarbiyasida hunarga, shuningdek, fan asoslari va san'atga o'rgatilishi kerak, deb hisoblaydi. Buning uchun bolani o'z vaqtida savodxonlik, hunarmand-chilik va san'at asoslari bilan tanishtirish kerak. Olti yoshdan boshlab bolani asta-sekin o'qitish mumkin. Lekin, o'qitish juda qiziqarli, bolani charchatmaydigan darajada tashkil qilinishi kerak.

Abu Ali ibn Sino ta'kidlab aytganlaridek, "Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri - tozalik, ikkinchisi - parhez, uchinchisi - badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi - mijoz bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo'lishlik, ko'ringan narsani, ya'ni ovqatni kelsa-kelmasa yeyavermaslik, apiltapil ovqatlanmaslik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmazlik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish - mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi" [7].

Mamalakatimizdagi tub yangilanishlar eng avvalo ijtimoiy hayotimizning eng muhim yo'nalishlari bo'lmish tinchlik va osoyishtalikni saqlash hamda aholi sog'ligini muhofaza qilish uchun munosib turmush tarzi yaratishdan boshlangani sir emas. Shuni nazarda tutib Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Sihat-salomatlik har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir. Faqat sog'lom inson va sog'lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz" [2] - degan edi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri aholi salomatligini va shunga munosib turmush tarzini vujudga keltirishdan iboratdir. Albatta, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining turli bosqichlarida sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq masalalar hamisha ham turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar natijasida mavjud bo'lgan muammolarni kutilgan darajada ijobiy hal qila olmagan. Chunki

jamiyatning tarixiy rivojlanishi davriy ravishda “Mashhur yunon tabibi Gippokrat-ning “Tabobat ilmi barcha ilmu san’atlar ichida eng buyuk ilm va san’atdir” degan fikriga har doim ham mos kelavermagan. Jamiyatlar rivojlanish tarixida sodir bo‘lib turgan jiddiy iqtisodiy va ma’naviy inqirozlar to‘laqonli sog‘lom turmush tarzi vujudga kelishiga zamin yarata olmagan.

Yaqin yaqingacha sog‘lom va uzoq umr ko‘rish insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib kelgan. Ammo uni real voqelikka aylantirish o‘ta qiyin va murakkab masaladir. Shu nuqtai nazardan har qanday jamiyatning oldida turgan asosiy vazifa insoniyatning ana shu orzusini ruyobga chiqarishdan, ya’ni kishilar sog‘ligi va uzoq umr ko‘rishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Yangi O‘zbekistonda allomalar merosini o‘rganish, go‘zalik va axloqiy kamolotga intilish insonga xos xususiyatlar, ilm egallash, davlat boshqaruvi, jamiyatni yangilanishi, fuqarolik jamiyatida mahalla, oila va ta’limning o‘zaro hamkorligi va boshqa fazilatlarni mutafakkirlar merosi orqali yoshlarga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Farobiy adolat tamoyillari, fuqarolarning o‘zaro tenglik va umumiy baxtiyorlikni amalga oshirish zaruratini hukmdorning xislatlari, ma’naviy barkamol va komil insonga xos xususiyatlar, Abu Ali ibn Sino qarashlarida, inson tabiati tug‘ilishdan boshlab axloqli yoki axloqsiz bo‘lmasligi, kishilar tayyor sifatlar, ko‘nikmalar, fazilat va illatlar bilan dunyoga kelmasligi, ularning tabiatiga ma’lum miqdorda jamoaning ham ta’siri borligi ta’kidlangan.

Biz uchun buyuk mutafakkirlarning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, insonning shaxs sifatida kamol topishida ilm-ma’rifatning, odob-axloqning o‘rni haqidagi fikrlari juda katta ahamiyatga ega. Abu Rayhon Beruniy falsafiy qarashlari ilm va axloq birligi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy ravnaq insonga xosdir, chunki u aqlning ulkan kuchi, tafakkurning faolligiga asoslanib, haqiqat bilan yolg‘on o‘rtasidagi chegarani belgilab olibgina qolmasdan, balki do‘stning dushmanidan farqini ham bilib oladi. Ilm va axloqiy fazilat mushtarakligi yoshlarni donishmand va olijanob shaxsga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2018, 3-tom. - B. 39.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022, 210-b.
3. Sharq olimlari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiyadagi o'rni va ahamiyati. - Xalqaro konferentsiya materiallari. - Samarqand-Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 47 b.
4. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. - T, Navro'z nashriyoti, 2019. - 364
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent, Yangi asr avlodi, 2016, 280-b.
6. Falsafa: qomusiy lug'at. - Toshkent: Sharq, 2004. - B.174
7. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. -210 b.